

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

KOMILOVA DILNOZAXON MUHAMMAD QIZI

**BADIIY MATN IMPLITSIT MAZMUNINI AKTUALLASHTIRUVCHI
IFODALAR TADQIQI
(detal komponentli matnlar misolida)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertatsion abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Science**

Komilova Dilnozaxon Muhammad qizi

Badiiy matn implitsit mazmunini aktuallashtiruvchi ifodalar tadqiqi (deta
komponentli matnlar misolida).....3

Komilova Dilnozaxon Mukhammad kizi

Study of the expressions which actualize the implicit content of literary texts (on
the example of the texts with detail components).....25

Комилова Дилнозахон Мухаммад кизи

Исследование выражений актуализирующих имплицитное содержание
художественного текста (на примере текстов с детальными
компонентами).....51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

KOMILOVA DILNOZAXON MUHAMMAD QIZI

**BADIIY MATN IMPLITSIT MAZMUNINI AKTUALLASHTIRUVCHI
IFODALAR TADQIQI
(detal komponentli matnlar misolida)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4776 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sayti (www.fdu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Mamajonov Muhammad Yusubjonovich**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: **Yuldashev Ma'rufjon Muxammadjonovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Karimov Suyun Amirovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning « 29 » noyabr 2025-yil soat 8'00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-66-02; faks: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

645 Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 10 » noyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil « 10 » noyabr dagi 56- raqamli reyestr bayonnomasi).



G.Z.Rozikova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

M.T.Abdupattayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi filol.f.d., professor

D.R.Teshaboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida borliqda yuz berayotgan har qanday voqea-hodisaning inson sezgi a'zolari orqali idrok qilinishi, badiiy mantiq asosida tartibga solinishi, ularning lisoniy yoki nolisoniy vositalar yordamida ifodalanishi kabilar matn tilshunosligining muammolari sifatida e'tirof etilmoqda. Badiiy matnga xos mazmuniy strukturani shakllantiruvchi ifoda vositalarini kognitiv-pragmatik jihatdan tahlil qilish, ularni kontekstual funksiyalari asosida guruhlarga ajratish, implitsit mazmunni aktallashtiruvchi detal komponentli matnlarni o'rganish zamonaviy tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida matn lingvistikasi, jumladan, uning tarkibiy qismi bo'lgan badiiy matn tahlili sohasida detal komponentli matnlarga e'tibor kuchaygan. Badiiy matnni antropotsentrik tilshunoslik aspektida tadqiq etish detallashtirilgan matn elementlarini o'rganish bilan bevosita bog'liq. Borliqda yuz berayotgan voqea-hodisalarning badiiy matnda turlicha vositalar bilan ifodalanishi va uni yuzaga chiqaruvchi lisoniy, nolisoniy birliklarning obrazli tasviri matn mazmuniy yaxlitligini ta'minlashga, matndagi implitsit mazmunni faollashtirishga xizmat qiladi. Bu esa boshqa matnlardan farqli ravishda badiiy detal va detallashtirilgan matnlarni kognitiv-pragmatik va lingvoestetik jihatdan tadqiq etish ehtiyoji borligini belgilaydi.

O'zbek tilshunosligida amalga oshirilayotgan ishlarda ham antropotsentrik tamoyillar ustuvorlik qilayotganligi kuzatilmoqda. Matn tadqiqida inson omilini hisobga olish muhim bo'lib, matnning implitsit mazmunini aktallashtiruvchi ifoda vositalari masalalariga qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Matn tilshunosligi yo'nalishiga taalluqli bo'lgan ifoda shakllarining turli-tumanligi, ularning vizual sezgi asosidagi assotsiatsiyasi badiiy matnda ifodalangan g'oya va fikrlar mantig'ini belgilaydi. Keyingi yillarda badiiy matnni yuzaga chiqaruvchi lisoniy vositalarning kogerentlik xususiyatlari o'rganildi. Biroq shunday bo'lsa-da, matn tilshunosligi yo'nalishida lisoniy va nolisoniy vositalarning adgezion funksiyalari, badiiy detalning verbal tasviriga oid masalalar monografik planda o'rganilmadi. "O'zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichi – milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish"¹ vazifasi asosida o'zbek tilini har tomonlama rivojlantirish maqsadida detal komponentli matnlarni nazariy jihatdan tahlil etish bugungi kun tilshunosligidagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4794-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги "Ўзбекистон Республикасининг "Давлат тили ҳақида"ги Қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида"ги ПҚ-4479-сон қарори. <https://lex.uz/docs/4664611?type=doc>.

“Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari; “2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”, 2025-yil 20-oktabrdagi PQ-803-son “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida matn lingvistikasining umumiy masalalari X.Izenberg, K.Gauzenblaz, P.Sgall, Z.Y.Schmidt² kabi olimlarning asarlarida ko‘zga tashlanadi. Matnning struktur tahliliga oid muammolar V.Dressler, M.A.K.Xellidey, V.Kox, M.Bellert, K.E.Xaydolf, M.Pfyutse, B.Palek, T.van Deyk, F.Kifer, X.Vaynrix, R.Xarveg, A.Vejbiska kabi lingvistlarning tadqiqotlari³ da o‘z ifodasini topgan. Matn tilshunosligi va poetika masalalari M.R.Mayenova, R.Bart, S.Todorovlarning ishlari⁴ da batafsil o‘rganilgan.

Badiiy matn implitsit mazmunini aktuallashtiruvchi ifodalar jahon tilshunosligida keng tahlil qilindi. Badiiy detallar tadqiqiga bag‘ishlangan dastlabki tadqiqotlarda detal haqidagi tushunchalar, ularning differensial va integral xususiyatlari, matn bilan o‘zaro bog‘lanishi o‘rganilgan.

Detal komponentli matnlarga oid izlanishlari bilan tanilgan Z.P.Guzar, A.A.Chernyakov, M.A.Bereznyak, V.A.Kuxarenko, N.I.Kolodina,

² Изенберг Х. О предмете лингвистической теории текста // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.43-57; Гаузенблэз К. О Характеристике и классификация речевых произведений // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.57-79; Сгалл П. К программе лингвистики текста // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С. 79-89; Шмидт З.И. “Текст” и “история” как базовые категории // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С. 89-111.

³ Дресслер В. Синтаксис текста // Новое зарубежной лингвистике. Выпуск 8. – М.: Прогресс, 1978. – С.111-138; Хэллидей М.А.К. Место “функциональной перспективы предложения” в системе лингвистического описания // Новое зарубежной лингвистике. Выпуск 8. – М.: Прогресс, 1978. – С. 138-148; Кох В. Предварительный набросок дискурсивного анализа семантического типа // Новое зарубежной лингвистике. Выпуск 8. – М.: Прогресс, 1978. – С.149-171; Беллерт М. Об одном условии связности текста // Новое зарубежной лингвистике. Выпуск 8. – М.: Прогресс, 1978. – С.172-1207; Хайдольф К.Э. Контекстные отношения между предложениями в генеративной грамматике // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.208-218; Пфютце М. Грамматика и лингвистика текста // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С. 218-242; Палек Б. Кросс-референция; к вопросу о гиперсинтаксис // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.243-258; Дейк ван Т. Вопросы прагматики текста // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.259-337; Кифер Ф. О пресуппозициях // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.337-370; Вайнрих Х. Текстовая функция французского артикля // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.370-387; Харвег Р. Редуцированная речь // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.388-401; Вежбицка А. Метатекст в тексте // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.402-424.

⁴ Майенова М.Р. Теория текста и традиционные проблемы поэтики // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.425-441; Барт Р. Лингвистика текста // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.442-449; Тодоров Ц. Грамматика повествовательного текста // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.450-463.

Y.A.Mukarjovskiy, I.A.Shirova, A.B.Yesin, A.I.Trubkina, S.Karimov, M.Xakimovlar⁵ ning tadqiqotlari mazkur dissertatsiya uchun konseptual asos vazifasini bajardi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi badiiy matn implitsit mazmunini aktuallashtiruvchi detal komponentli matnlarning kognitiv-pragmatik va assotsiativ xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

badiiy matnning kategorial xususiyatlariga doir ishlarni umumlashtirish orqali implitsit mazmuniy sathning mantig'i hisoblangan kogeziya va adgeziya hodisalari paradigmalarni belgilash;

matn implitsit mazmunini aktuallashtiruvchi badiiy detallarninig assotsiativ xususiyatlarini verbal tasvirlar orqali aniqlash;

badiiy matn mazmuniy sathida ishtirok etuvchi detal va detallashtirilgan ifodalar verbalizatsiyasi masalalariga aniqlik kiritish;

detail komponentli matnlarning lingvopoetik tavsifi va tahliliga oid ilmiy paradigmalarni shakllantirish;

olamning konseptual va badiiy-lisoniy manzarasida nolisoniy ifodalarning kognitiv-pragmatik mexanizmlarini aniqlash va ularning lingvoestetik funksiyalarini ko'rsatish.

Tadqiqotning obyekti sifatida detal komponentli matnlar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti detal komponentli matnlarning assotsiativ-pragmatik xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsiflash, tasniflash, komponent tahlil, qiyosiy va semiologik tahlil usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

badiiy matnning mazmuniy yaxlitligini ta'minlovchi leksik-semantik birliklarning o'zaro mantiqiy bog'lanishi, ularning kontekstual strukturada mazmunan bir-birini to'ldirishi, matnda verbal vositalarning implitsit ifodasini yuzaga chiqaruvchi kogeziya va detallashtirilgan obrazli ifodalar assotsiatsiyasi sanalgan adgeziya hodisalarining mohiyati ilmiy asoslangan;

⁵ Гузар З.П. Художественная деталь в произведениях Ивана Франко бориславского цикла: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Львов, 1970; Черняков А.А. Художественная деталь как объект эстетического анализа: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Астрахань, 1978; Березняк М. А. Типы и функции художественной детали в англоязычной прозе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Одесса, 1986; Кухаренко В.А. Интерпретация текста. – М.: Просвещение, 1988; Колодина Н.И. Художественная деталь как средство текстопостроения, вовлекающее читателя в рефлексивный акт: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тверь, 1997; Мукаржовский Я. Исследования по эстетике и теории искусства. – М.: Искусство, 1994; Щирова И.А. Психологический текст: деталь и образ. - СПб.: Филологический фак-т СПбГУ, 2003; Есин А. Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения. – М.: Флинта, 2011; Трубкина А. И. Художественная деталь: имплицитность и коммуникативно-прагматические функции // Филологические науки. Вопросы теории и практики, 2021. – Том 14. – Вып. 9. – С. 2849-2855; Каримов С. Ўзбек тилининг бадийи услуги. – Самарқанд; Зарафшон, 1992. – 140 б; Хакимов М.Х. К прагматике экстралингвистических средств в узбекском языке (на примере рассказа Саида Ахмада "Коракуз Мажнун") // Российская тюркология. – М.: Изд-во ИЯРАН, 2015. – С. 9-12.

badiiy matn mazmuniy sathida aktuallashuvchi detallarning belgilik tabiati, ularning obrazli ifodasi, badiiy mantiqqa asoslangan semiologik-assotsiativ jihatlarini hamda detallashtirilgan komponentli matnlarning verbalizatsiyasi lisoniy dalillar tahlili asosida isbotlangan;

detal komponentli matnlarning kognitiv-pragmatik xususiyatlarini aniqlash orqali tilning lisoniy sistemasiga taalluqli bo'lgan nutq tiplarining peyzaj, harakat-holat, narsa-buyum, qahramon nutqi kabi turlari ajratilgan hamda ularning matn mazmuniy sathidagi o'rni ochib berilgan;

tilning verbal tizimiga mansub lisoniy elementlar va ekstralingvistik sistemaga taalluqli nolisoniy ifodalar estetik qiymatga ega bo'lgan kontekstdagina badiiy obrazga aylanishi, ijodkor badiiy tafakkurida voqelikning verbal tasviri hamda badiiylik mezonlari bilan to'yingan oshkora va yashirin mazmuniy strukturaning mantiqiy transformatsiyalanish tamoyillariga asosan uyg'unlashuvi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

badiiy va verbal tasvir tizimiga oid ifoda shakllarining tadqiqi matn lingvistikasi sohasi uchun muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi, shuningdek, sotsiolingvistika, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya bo'yicha yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

“Matn lingvistikasi”, “Pragmalingvistika” “Kognitiv tilshunoslik”, “Psixolingvistika”, “Lingvokulturologiya” fanlari bo'yicha yaratiladigan darslik va qo'llanmalar, lingvistika bo'yicha terminologik, o'quv lug'atlarining yanada mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, magistrantlar va soha mutaxassislarining ijodkor badiiy tafakkuri orqali ifodalangan implitsit mazmunli matnlarda detallashtirilgan g'oya va fikrlar tadqiqiga doir bilimlarini boyitishga amaliy jihatdan xizmat qilishi dalillangan;

badiiy matnlarda detal komponentli ifoda vositalarining muloqot jarayonida namoyon bo'lishini aniqlash va ularni matn nazariyasiga asosan implitsit ifoda shakli sifatida o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar uchun ilmiy manba bo'lib xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, nazariy ma'lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, xulosalarning zamonaviy badiiy matn tahlil metodlari bilan asoslanganligi, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, mavzuning jahon tilshunosligidagi ustuvor ilmiy konsepsiyalar asosida o'rganilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati detal komponentli badiiy matnlarni kognitiv, lingvokulturologik, psixolingvistik, struktur-semantik va uslubiy-funksional aspektida tadqiq etishning nazariy asoslari belgilab berilganligi, o'zbek tilida badiiy matn implitsit mazmunini aktuallashtiruvchi ifoda shakllari tadqiqining usul va tamoyillari ilmiy jihatdan asoslanganligi, lisoniy hamda nolisoniy ifoda vositalari badiiy matnning

tipologik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qilishi yoritib berilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati matn lingvistikasi, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmalolingvistika hamda lingvokulturologiya bo'yicha yaratiladigan darslik va qo'llanmalarning mukammallashuviga xizmat qilishi bilan belgilanadi, dissertatsiya materiallari zamonaviy tilshunoslikka oid mavjud lug'atlarni boyitishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

IV. Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Badiiy matnda implitsit mazmuni aktualashtiruvchi ifodalar tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

badiiy matnning mazmuniy yaxlitligini ta'minlovchi leksik-semantik birliklarning o'zaro mantiqiy bog'lanishi, ularning kontekstual strukturada mazmunan bir-birini to'ldirishi, matnda verbal vositalarning implitsit ifodasini yuzaga chiqaruvchi kogeziya va detallashtirilgan obrazli ifodalar assotsiatsiyasi sanalgan adgeziya hodisalarining mohiyati ilmiy asoslanganligiga doir natija va xulosalardan 2021-2023-yillarda bajarilgan "O'zbek tilining milliy korpusini loyihalash va dasturiy majmua ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanildi. (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialining 2025-yil 20-iyundagi 363/01-01-sonli ma'lumotnomasi). Natijada badiiy matnda ijodkor tafakkuriga xos badiiylik mezonlarining mukammallik darajasi nafaqat umumiy lisoniy bilim fondiga asoslangan ifoda, balki badiiy did, estetik tafakkur kabi ifoda shakllari bilan ham belgilanishi haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar asosida loyiha ma'lumotlarining mukammallashuviga erishilgan;

badiiy matn mazmuniy sathida aktualashuvchi detallarning belgilik tabiati, ularning obrazli ifodasi, badiiy mantiqqa asoslangan semiologik-assotsiativ jihatlar hamda detallashtirilgan komponentli matnlarning verbalizatsiyasi lisoniy dalillar tahlili asosida isbotlanganligiga oid natija va xulosalardan 2020-2021-yillarda bajarilgan "O'zbek milliy raqs san'atini targ'ib etishga bag'ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari (elektron lug'atlar) to'plamini yaratish" mavzusidagi FZ- 2019081663 raqamli fundamental loyihani bajarishda, xususan, "O'zbek folklor san'ati terminlarining qisqacha o'zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha izohli lug'ati"ni yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi O'zbekiston davlat Xoreografiya akademiyasining 2025-yil 12-iyundagi 1/04-255 son ma'lumotnomasi). Natijada oddiy xabarni ifodalovchi turli-tuman vositalar badiiy matnda lingvoestetik funksiya bajarishi loyiha doirasida yaratilgan lug'atning mukammallashuviga xizmat qilgan;

badiiy detal komponentli matnlarning kognitiv-pragmatik xususiyatlarini aniqlash orqali tilning lisoniy sistemasiga taalluqli bo'lgan nutq tiplarining peyzaj, harakat-holat, narsa-buyum, qahramon nutqi kabi turlari ajratilgan hamda ularning matn mazmuniy sathidagi o'rni ochib berilganligi hamda tilning verbal tizimiga mansub lisoniy elementlar va ekstralingvistik sistemaga taalluqli nolisoniy ifodalar estetik qiymatga ega bo'lgan kontekstdagina badiiy obrazga aylanishi, ijodkor badiiy tafakkurida voqelikning verbal tasviri hamda badiiylik mezonlari bilan to'yingan oshkora va yashirin mazmuniy strukturaning mantiqiy

transformatsiyalanish tamoyillariga asosan uyg'unlashuvi dalillanganligiga doir ilmiy natija va xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining "Bedorlik", "Ijod zavqi", "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" eshittirishlari ssenariysini yozishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining 2025-yil 12-iyundagi 26-36-1003 son ma'lumotnomasi). Natijada detallashtirilgan komponentli matnlar masalalariga oid ilmiy-amaliy qarashlar asosida tayyorlangan radiodasturlarning mazmunan mukammallashuviga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (5 tasi respublika hamda 1 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 125 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, nazariy va amaliy ahamiyati, obykti, predmeti, ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, ishonchliligi, aprobatsiyasi, e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Lingvistik paradigma va matn nazariyasi**" deb nomlangan. Bobning birinchi fasli "**Matn nazariyasining shakllanish tarixi**"ga bag'ishlangan. Matnga lingvistikaning tadqiqot obykti sifatida qaralgandan buyon matnning mazmuniy-strukturasiga doir ilmiy ishlar ko'lami tobora kengayib bormoqda. Lisoniy tizimga oid har qanday matn dastlab falsafa, adabiyotshunoslik, matnshunoslik, tarix va shu kabi fan yo'nalishlarining materiali sifatida tahlil qilingan va o'rganilgan. Tilshunoslikda matnga lingvistik tadqiqot obykti sifatida qarash tendensiyasining shakllanish davri XX asrning 70-80-yillaridan boshlanadi, matn tilshunosligi yo'nalishining rivojlanishi esa XXI asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi.

Badiiy matn implitsit mazmunini aktuallashtiruvchi ifodalar jahon tilshunosligida keng doirada tahlil qilina boshlandi. Badiiy detallar tadqiqiga bag'ishlangan dastlabki tadqiqotlarda detal haqidagi tushunchalar, ularning differensial va integral xususiyatlari, matn mazmuni bilan o'zaro bog'lanishi tahlil qilingan. Bunday tipdagi tadqiqotlar rus olimlari Z.P.Guzar, A.A.Chernyakov, M.A.Bereznyak, V.A.Kuxarenko, N.I.Kolodina, Y.A.Mukarjovskiy, I.A.Shirova,

A.B.Yesin, A.I.Trubkinalar⁶ning ishlarida ko‘zga tashlanadi. Tilda detal termini mavjud bo‘lib, u, asosan, badiiy adabiyot tiliga oid atama sifatida qo‘llanadi. Bu termin ifodalagan tushuncha mazmuni sujetga aloqador bo‘lgan voqea-hodisalar “tafsilot”i, detallashtirilgan ifodalarning “mayda-chuyda” va “ikir-chikir” tasviri, ayrim g‘oya va fikrlarning “batafsil” bayoni, portret yoki peyzajga oid tasvirning “atroflicha” tahlili kabi so‘z va birikmalar orqali ham anglashiladi. Odatda, detal atamasi so‘zlashuv nutqida ma’lum bir narsaning tarkibiy qismi ma’nosida anglanadi. Badiiy detal termini tilshunoslikning matn tadqiqiga oid yo‘nalishlariga taalluqli bo‘lib, u badiiy matnda muallifning kommunikativ maqsadini ifodalashga yo‘naltirilgan nolisoniy vosita sifatida e’tirof etiladi. Badiiy matnda qo‘llanuvchi detal adabiyotshunoslikdan farqli tarzda ma’lum bir g‘oya yoki fikrni implitsit ifodalashga xizmat qiluvchi hamda uni aktualashtiruvchi pragmatik xususiyatlari bilan lingvistikaning ham tadqiqot obyekti sanaladi. Bu termin badiiy matn mazmuniga tegishli hodisa sifatida e’tirof etiladi. U shu vaqtga qadar o‘zbek tilshunosligida lingvistik tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Poetik, vizual, kreolizativ va enigmatik matn turlari⁷ mavjudligi hisobga olinsa, detal komponentli matnlarni ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish tilshunoslikning muhim masalalaridan biridir.

Ma’lumki, badiiy detal nolisoniy vosita hisoblanadi. U badiiy matnda verbal vositalar singari lingvosemiotik belgi vazifasida kela oladi. Detal ma’lum bir voqea yoki xabar haqida ma’lumot beradi. Detal badiiy matnda qo‘llanuvchi nolisoniy vosita sifatida implitsit mazmuni faollashtirish vazifasini bajaradi. Badiiy matnda detal ham muallif yoki asar qahramonlariga taalluqlilik funksiyasini bajaradi. Detallashtirilgan matn qismlari verbal vositalar singari muayyan xabar yoki axborot ifodalaydi. Tilshunoslikda badiiy detal tadqiqiga turlicha yondashuv tamoyillari mavjud bo‘lib, ular tadqiqot obyekti tahliliga qo‘yilgan maqsadga nisbatan o‘rganiladi. Badiiy detal tadqiqiga oid dastlabki ishlar badiiy asar g‘oyasining ifodalanishiga nisbatan belgilangan. Shuning uchun ham badiiy detal masalalariga bag‘ishlangan ilk tadqiqotlar adabiyotshunoslik⁸ yo‘nalishida amalga oshirilgan. Ayni shu sohaning o‘zida ham detal tadqiqiga oid ishlar mundarijasi rang-barangligi bilan ajralib turadi.

⁶ Гузар З.П. Художественная деталь в произведениях Ивана Франко бориславского цикла: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Львов, 1970; Черняков А.А. Художественная деталь как объект эстетического анализа: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Астрахань, 1978; Березняк М.А. Типы и функции художественной детали в англоязычной прозе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Одесса, 1986; Кухаренко В.А. Интерпретация текста. – М.: Просвещение, 1988; Колодина Н.И. Художественная деталь как средство текстопостроения, вовлекающее читателя в рефлексивный акт: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тверь, 1997; Мукаржовский Я. Исследования по эстетике и теории искусства. – М.: Искусство, 1994; Щирова И.А. Психологический текст: деталь и образ. – СПб.: Филологический фак-т СПбГУ, 2003; Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения. – М.: Флинта, 2011; Трубкина А. И. Художественная деталь: имплицитность и коммуникативно-прагматические функции // Филологические науки. Вопросы теории и практики, 2021. – Том 14. – Вып. 9. – С. 2849-2855.

⁷ Носирова У. Поэтик матнларнинг прагматик хусусиятлари: Филол.фан.б.фалс.док. (PhD) ... дисс. автореф. – Фаргона, 2021; Юнусова Х. Визуал поэтик матнларнинг прагма-когнитив тадқиқи: Филол.фан.б.фалс.док. (PhD) ... дисс. автореф. – Фаргона, 2022; Бурханова М. Креолизатив матнларнинг паралингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан.б.фалс.док. (PhD) ... дисс. автореф. – Фаргона, 2022; Якубова Н. Жумбокли матнларнинг семантик ва прагматик хусусиятлари: Филол.фан.б.фалс.док. (PhD) ... дисс. автореф. – Кўкон, 2022.

⁸ Solijonov Y. Detallar tilga kirganda // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2007. – №5 – B.2.

Birinchi bobning “**Matn lingvosemiologik sistema sifatida**” deb nomlangan ikkinchi faslida tilga semiologik nuqtayi nazardan qarash an’anasi matn sathiga ham ko‘chganligining ilmiy asoslari yoritilgan. Matn lingvistik tadqiqot materiali sifatida e’tirof etilgan davrlardayoq unga semiologik birlik sifatida qarash odati shakllandi. Tilning lingvosemiotik tizimiga gapdan katta bo‘lgan birliklar sifatida matn ham kiritila boshlandi. Ma’lumki, belgi haqidagi tushunchalar va tilning belgilik tabiati “til – nutq” tizimi asosida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham belgiga xos paradigmalari o‘z-o‘zidan matnga ham taalluqli bo‘lib, murakkab xususiyatga ega bo‘lgan bunday birliklar til birliklari singari inson ongida assotsiatsiyalanadi. Matn ham inson ongi orqali idrok qilinib, uning har bir tarkibiy qismi belgilar sifatida namoyon bo‘ladi. Ayni vaqtda ana shu belgi vazifasini bajaruvchi matn elementlari yoki ifoda shakllari inson tasavvuri orqali borliqni idrok qilishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda belgining turli aspektlarini hisobga oluvchi ko‘plab ta’riflar mavjuddir. Hamma qirralarini hisobga olgan holda Y.S.Maslov unga shunday ta’rif beradi: “Belgi – bu idrok qilinadigan narsa bo‘lib, idrok qiluvchiga o‘zi haqida va ushbu belgidan tashqari bo‘lgan boshqa narsa haqida ma’lumot beruvchi vositadir”⁹. Matn murakkab va ko‘p tarkibli tuzilishga ega bo‘lgan birlik bo‘lib, u verbal, noverbal va nolisoniy vositalardan tashkil topadi. Matn mazmunini ifodalashda ishtirok etuvchi bu vositalar inson tafakkurida idrok qilinadi hamda matn mazmuni anglanadi. Badiiy matn muallifi asar qahramonlari, personajlarga tegishli bo‘lgan har bir narsani “gapirtiradi”, “tilga kiritadi”. Badiiy matnda obraz va personajlarga taalluqli bo‘lgan biror predmet, narsa, buyumlarning har biri muayyan bir xabarni ifodalaydi. Ayni vaqtda badiiy matnda qo‘llanuvchi har qanday detal belgilik tabiatiga ega bo‘lishi bilan xarakterlidir. Detallarga xos axborot ifodalash funksiyasi ularni belgi sifatida tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Ekstralingvistik belgilar orqali muallif o‘zining kommunikativ maqsadini ifodalaydi. Ularning verbal va noverbal vositalardan farqi shundaki, muallif nazarda tutgan axborot obrazli ifoda talqiniga ega bo‘ladi. So‘zlashuvchilar assotsiatsiyasi bunday ifoda shakllarini tez o‘zlashtiradi.

Detal komponentli matnlar ham badiiy matnda verbal tasvir usuli orqali bayon qilinadi, shuning uchun ham ular semiologik tamoyillar asosida tahlil qilinadi. Bunday tipdagi matnlar insonning vizual va audial sezgi a’zolari orqali assotsiatsiya qilingani uchun ham to‘liq ma’noda belgi qiymatiga ega bo‘ladi. Belgida ma’lum bir voqea-hodisalar mazmuniga asoslangan xabarlar ifodalanib, ular badiiy matnda verballashadi.

Muayyan millat yoki xalqqa tegishli bo‘lgan so‘z san’atkori olam va tafakkur ayniyatiga asoslangan umumiy lisoniy bilim fondi asosida olam unsurlaridan obrazli ifoda vositasini yasay oladi. Olam manzarasini o‘zida aks ettiruvchi “tafakkur faqat subyektiv inson faoliyatinigina emas, balki obyektiv mohiyat, barcha mavjudotning birlamchi manbayi bo‘lgan”¹⁰ borliq haqidagi umumiy tushuncha va bilimlardan tashkil topadi. U har bir xalq va millat vakilining o‘ziga

⁹ Bu haqda qarang: Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдди. II жилд. – Тошкент: Akadernashr, 2012. – 75 б.

¹⁰ Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилддик. I жилд. – Тошкент, Akadernashr, 2012. – Б.34.

xos dunyoqarashini aks ettiradi, inson tafakkuridagi konseptual olam ifodasi borliqda ro‘y berayotgan voqea-hodisalar mantiq‘iga quriladi. Inson tafakkuridagi konseptual olam badiiy matnda lisoniy va nolisoniy vositalar orqali namoyon bo‘ladi, muallif tafakkuridagi olam unsurlari lisoniy badiiy manzaraga aylanadi. Borliq elementlari real mantiq asosida konseptual tushunchalarga transformatsiyalanib, ular inson ongida kategorial tizimga aylanadi. Inson tafakkurini tashkil qilgan konseptual olamning mantiq‘i lisoniy-badiiy tasvirda ham aks etadi. Asardagi badiiy detal muallif istagan obrazli ifoda sifatida u yoki bu mazmunni, aniqroq aytganda, badiiy matn implitsit mazmunini mantiqiy tafakkur asosida aktuallashtiradi. Demak, badiiy adabiyotda ham mantiq degan tushuncha mavjud bo‘lib, “badiiy mantiq ijodkor ideali, ijodiy xayoli, dunyoqarashi bilan qay darajada bog‘liq bo‘lmasin, obrazlar, voqealarning badiiy talqinini, vazifasini belgilashda u hayotiy mantiqqa rioya qilishi lozim. Badiiy mantiq xayolan, hattoki, tasavvurda ham hayotiy mantiq mezonlari doirasidan tashqari chiqsa, o‘zining hayotiy qiyofasini, ta’sirchanligini ma’lum darajada yo‘qotadi. Shuning uchun badiiy mantiq har doim, har bir shaklda ham hayotiy mantiq bilan muayyan darajada shartlangan holda voqe bo‘lishi shart”¹¹.

Birinchi bobning uchinchi fasli **“Matn kategoriyasi: yondashuv tamoyillari va obrazli ifodalar”** deb nomlangan. Ma’lumki, matn tilshunosligi yo‘nalishining paydo bo‘lishi tadqiqot obyekti sifatida tanlangan u yoki bu uslubga tegishli matnlar xususiyatini o‘rganishdan boshlandi. Bunda qaysidir uslubga taalluqli bo‘lgan matn mazmunini tashkil qiluvchi komponentlarning o‘zaro bog‘lanishini ta’minlovchi lisoniy vositalar muhim o‘rin tutadi. Matn tarkibiy qismlarini bog‘lovchi lisoniy vositalar barcha tipdagi matnlar uchun umumiy bo‘lib, ular matnning mazmuniy yaxlitligini ta’minlashga xizmat qiladi. Og‘zaki yoki yozma muloqot uchun matnning mazmuniy yaxlitligi muhim bo‘lib, kogeziya hodisasiga asoslangan mantiqiy bog‘lanish barcha tipdagi matnlar uchun xos bo‘ladi. Badiiy matn yoki muloqotning og‘zaki shaklida adgeziya hodisasiga asoslangan bog‘lanish ham ro‘y beradi. Matn mazmuniy yaxlitligini ta’minlashda bog‘lanishning har ikki turi ishtirok etadi. Shuning uchun ham mazmuniy bog‘lanishning asosi sifatida kogeziya va adgeziya hodisalari tilning kategorial xususiyatlaridan biri deb qaraladi. Demak, matn mazmuniy strukturasi shakllantiruvchi bog‘lanish sistemasiga nisbatan qo‘llanuvchi kogeziya va adgeziya hodisalarini kategoriya deb hisoblash mumkin. Hozirgi kunda matn kategoriyasi tushunchalari talqinida har xillik ko‘zga tashlanadi. Masalan, I.R.Galperin matn kategoriyasi tushunchalarini uning yuzaga kelish qonuniyatlari¹² bilan izohlaydi. Boshqa mualliflar¹³ da esa matn kategoriyasi termini nutqiy asarning o‘ziga xosligi bilan izohlanadi. Matn kategoriyasiga oid talqinlarning yana birida asarning mazmuniy tomoni va struktur xususiyatlari birinchi planga olinadi. Matn kategoriyasi haqida so‘z borganida, dastlab barcha matnlarga xos bo‘lgan xususiyatlar hisobga olinadi. Bu belgilar shakl nuqtayi nazaridan ham,

¹¹ Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004. – Б.16.

¹² Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: КомКнига, 2007. – 144 с.

¹³ Bu haqda qarang: Жаббарова Ф.У. Категория текста // Вестник Башкирского университета, 2011. – Т.16. – № 3. – С. 759.

mazmun nuqtayi nazaridan ham barcha matnlarga taalluqliligi bilan ajralib turadi. Bizningcha ham, har qanday matn uchun umumiy bo'lgan belgilar tizimi matn kategoriyasini hosil qiladi.

Dissertatsiyaning **“Badiiy matnda implitsit mazmun: kogeziya va adgeziya”** deb nomlangan ikkinchi bobida detal komponentli matnlarda implitsit mazmuni yuzaga chiqaruvchi kogeziya va adgeziya hodisalari xususida fikr yuritiladi.

Bobning **“Badiiy detal tipologiyasiga turlicha yondashuvlar”** deb nomlangan birinchi faslida badiiy detal ishtirok etgan detal komponentli matnlar talqiniga oid qarashlar tahlil qilinadi. Badiiy matn uchun badiiylik mezonlariga oid tushunchalar xos bo'lib, ular “badiiy kontekst”¹⁴ (termin B.Sarimsoqovniki) tushunchasi bilan izohlanadi. “...Real voqealik o'z tabiatiga ko'ra, betakror va estetik material bo'lib, u badiiy adabiyotda so'z vositasida o'z ifodasini topadi. Subyektiv imkoniyat esa ijodkorning badiiy didi, estetik ilg'ami, dunyoqarashi orqali voqelikni betakror alohidalik va aniqlikda umumlashtira olish darajasi hamda estetik baholash iqtidori kabilardan iborat bo'lib, bevosita mana shu imkoniyat material estetikani badiiy kontekstga olib kiradi. Shu jarayonda so'z tuyg'u, his va aql sintezi tufayli obrazga aylanadi”¹⁵. Olim ta'kidlaganidek, so'z borliqdagi har bir narsani nomlaydi. Ijodkor esa so'zni badiiy kontekstga olib kirar ekan, uni obrazli ifoda shakliga aylantiradi, so'z voqea-hodisalarning verbal tasvirini ifodalash jarayonida asosiy va qo'shimcha axborotlarni diktum va modus kabi mazmun tiplariga ham ajratadi. Badiiy matnda ijodkor tafakkuriga xos badiiylik mezonlarining mukammallik darajasi nafaqat umumiy lisoniy bilim fondiga asoslangan ifoda, balki badiiy did, estetik tafakkur kabi ifoda shakllari bilan ham belgilanadi.

Har bir uslubga doir matn turlarida o'ziga xos stil elementlari yetakchilik qiladi. Badiiy matn boshqa uslub matnlaridan farqli tarzda badiiylik, obrazlilik, tasviriylik va estetik-emotsionallik kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Muayyan til vakillariga xos lisoniy zaxiralar va ularning ma'nosi ham ijodkor ongida birdek saqlangani holda ular badiiy tafakkurning mahsuli bo'lgan poetik ma'no yoki ifoda mazmuni bilan uyg'unlashadi. Denotativ ma'noga asoslangan lisoniy ma'no ijodkor badiiy tafakkuridagi poetik bo'yoq bilan to'yinadi. Poetik tafakkurning lisoniy voqelanishi olamning badiiy-lisoniy manzarasini shakllantiradi. Olamning lisoniy manzarasi faqatgina verbal vositalar bilangina shakllanmay, u nolisoniy ifoda vositalari bilan ham namoyon bo'ladi. Badiiy tafakkurning shakllanishida turli sezgi a'zolari orqali qabul qilingan xabarlar muhim o'rin tutadi, ular ijodkorning hayotiy va badiiy mantiqqa asoslangan qarashlari bilan sintezlanadi, lisoniy va nolisoniy ifoda vositalari bilan moddiylashadi.

Olamning badiiy-lisoniy manzarasini o'rganuvchi matn tilshunosligi badiiylik tamoyillari asosida ish ko'radi. Ijodkor verbal tasvirda aytishi lozim bo'lgan g'oya va fikrlarni ifodalashda yangicha tasvir usulini tanlaydi. Verbal tasvirdagi propozitsiya mazmunida berilgan oshkora va yashirin fikrlar detal tasvirida davom etadi. Aslida detal tushunchasi ostida mayda-chuyda narsa, ma'lum voqea-hodisalar mazmunini faktlar orqali isbotlash mazmuni tushuniladi. “Detal – biror

¹⁴ Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004. – Б.39.

¹⁵ Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004. – Б.39.

ish, hodisa, sujet va shu kabilarning kichik uzviy qismi, tafsiloti. *Shu tarzda hamma detallar tayyor bo'lgach, xarakterlar yetilgandagina yozishga o'tirar edilar*¹⁶ (K.Qahhorova, "Chorak asr hamnafas").

Ma'lumki, adabiyot – so'z san'atidir. Bu san'atning egasi tilda mavjud bo'lgan so'zlardan foydalanish jarayonida poetik ma'no va fikrlar ifodasini o'zida aks ettira oladigan lisoniy birliklarni tanlashga e'tibor beradi. Ijodkor badiiy matnda so'z tanlash san'ati bilan chegaralanib qolmasdan, ifoda vositasi, shakli va turini ham farqlashga harakat qiladi. Ifoda shakli bir o'rinda tasvir, ikkinchi joyda rivoya, uchinchi bir o'rinda esa munozaraga asoslangan muhokama nutq tipiga aylanadi. Shuning uchun ham poetik shakl transformatsiyasiga asoslangan matn badiiylik tamoyillari va mezonlari asosida shakllanadi. Badiiy detal ham matnning badiiyligini ta'minlovchi mantiqqa asoslangan tarkibiy qismlardan biri bo'lib, u matn lingvistikasining o'ziga xos yangi yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi, ayni vaqtda u tilning estetik jozibadorligini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Badiiy detal adabiyotshunoslik yo'nalishining tadqiqot obyekti sifatida har jihatdan o'rganilgan. Shuning uchun ham adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarda bu borada bir muncha fikrlar bildirilgan. "Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotida badiiy detal imkoniyatlarining cheksiz ekanini ko'rsatgan yozuvchilardandir... tejamlilik – kam so'z ishlatib, boy mazmun bera bilish"¹⁷ muallifning individual mahorati bilan bog'liq bo'ladi. Badiiy matnda detal verbal tejamlilikni yuzaga chiqaradi. So'z bilan ifodalab bo'lmaydigan fikr va g'oyalar mazmuni detallarga yuklanadi. Detal va detallashtirilgan matnning tarkibiy qismlari ma'lum bir vaziyatni insonning ruhiy holatini ifodalash barobarida fikrlar izchilligi va obrazlilikini ta'minlashga xizmat qiladi. Detal bilan bog'liq tushunchalar sohaga oid terminologik lug'atlarda o'z ifodasini topgan: "Detal (fr. detail – tafsilot, mayda-chuyda) – badiiy detal; badiiy asarda muayyan mazmun ifodalovchi, g'oyaviy-badiiy yuk tashuvchi tafsilot. Avvalo, detal badiiy voqelikni yaratish vositasi – ashyosi bo'lib, u tasvirlanayotgan narsa-hodisani konkretlashtiradi, uni hissiy idrok qilish mumkin bo'lgan tarzda gavdalantiradi. Boshqacha aytsak, detal asarda tasvirlangan obrazning kichik bir qismi (ya'ni u hamisha predmetlilikni ko'zda tutadi), detallarning birikuvi natijasida o'sha obraz ko'z oldimizda butun holda namoyon bo'ladi. Badiiy detal ortida ma'lum bir realiya mavjud: maishiy turmush yoki joy tafsilotlari, portret chizgilari va sh.k."¹⁸ Terminologik lug'atdan olingan yuqoridagi fikrlar detalga berilgan ta'riflar bo'lib, bu termin sohaga oid maxsus lug'atlarda "badiiy detal" atamasi nomi bilan izohlanadi. Badiiy detal tushunchasi esa badiiy matn mazmuniga oid mayda-chuyda tafsilotlar sifatida izohlanadi. Badiiy matn muallifi mazmunga asoslangan voqelikni ifodalashda obrazli vositalardan ustalik bilan foydalanadi. Muallif va kitobxon tasavvurida muayyan voqea va hodisalarni detallashtirish, ularni ayrim predmet, maishiy turmush, makon yoki portret chizgisi, peyzaj tasviri kabi ifoda vositalari bilan tasvirlash va ularni assotsiatsiya qilish jarayoni uchun detallar obrazli ifoda vositalari vazifasini bajaradi. Ularning

¹⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. I jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.331.

¹⁷ Султонова М. Абдулла Қаҳҳор услуби. – Тошкент: Фан, 1967. – Б.123.

¹⁸ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б.89.

zimmasiga yuklangan xabarlar esa badiiy matn mazmunini mukammallashtiradi, implitsit mazmunni aktualashtiradi, verbal va noverbal tasvir ifodasida o‘zaro hamohanglikni ta’minlaydi.

Bobning ikkinchi fasli **“Kogeziya hodisasi va verbal tasvir”** deb nomlangan. Kogeziya lingvistik termin sifatida matn tilshunosligiga oid tushunchalarni ifodalashga, izohlashga xizmat qila boshladi. Maxsus terminologik lug‘atlarda kogeziya hodisasi quyidagi ta’rif bilan izohlanadi: “kogeziya (lot. cohaesus - bog‘langan, birikkan) – lingvistikada gap yoki matn birliklarining leksik va grammatik vositalar orqali bog‘lanishi bo‘lib, u matnga xos tekstuallik, intertekstuallik darajalarini belgilashga”¹⁹ xizmat qiladi. Matn tilshunosligi yo‘nalishi bo‘yicha qator tadqiqotlarni amalga oshirgan I.R.Galperin kogeziya termini ifodalagan tushunchani quyidagicha izohlaydi: “... ifodaning alohida qismlarini o‘zaro bog‘lash uchun foydalaniladigan ma’lum vositalar tadqiqot masshtabiga, ayni paytda, o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi. Bog‘lanish tizimiga oid bunday shakllar ifodasi uchun kogeziya termini qo‘llana boshladi. U inglizcha “cohesion” – “birikish” ma’nosini anglatadi. Kogeziya bu bog‘lanishning maxsus ko‘rinishidir. U matnda ifodalangan xabar, fakt va hodisalarning o‘zaro temporal hamda lokal mantiqiy bog‘lanishini ta’minlovchi kontinuumdir”²⁰. Muayyan yo‘nalishdagi fikrning bir mavzu doirasidagi ifodasi kogeziyaning kuchlilik darajasini belgilaydi. Fikrning bir mavzu doirasidan chiqishi esa kogeziyaning kuchsizlanishini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham ifoda asosida fikrning aniqligi, bir tizimga yo‘naltirilganlik darajasi, ularni maxsus bog‘lovchi vositalar bilan ta’minlanganligi matn yoki nutq tarkibidagi mazmuniy strukturaning yaxlitligini belgilaydi.

L.Losevaning ta’kidlashicha, “...matn shunchaki tuzilmaydi, uning o‘ziga xos frazalararo bog‘lanish ko‘rinishlari, frazalararo bog‘lanish vositalari, yordamchi va modal so‘zlar, matn tarkibidagi gaplarda hukmni ifodalovchi fe‘l kesimlarning o‘ziga xos shakllari, olmosh va sonlarning kogeziya funksiyasi, matn tarkibidagi temporal va lokal xususiyatlari, takrorlarning bog‘lovchi funksiyasiga ega bo‘lishi, frazalararo bog‘lanishning sinonimik asoslari”²¹ kabilar matn tarkibiy qismlarini bog‘lashda ishtirok etadi. Ular bir jihatdan matn elementlarini bog‘laydi, ikkinchi jihatdan esa, matn tarkibidagi elementlarning u yoki bu stilga xosligini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Muloqot ishtirokchilari yoki ijodkor tomonidan tuzilayotgan matn borliqni idrok qilish va uni lisoniy vositalar yordamida shakllantirish asosida ro‘y beradi. Matn yoki nutq tarkibidagi fikrlar mazmunining o‘zaro uzviyligi nafaqat konkret mavzu bilan belgilanadi, balki u fikrlar ifodasida u yoki bu stilga xoslanganligi bilan ham ko‘zga tashlanib turadi. Shuning uchun ham matn yoki nutq mazmunining mukammalligi kogeziya tushunchasini ifodalovchi bog‘lanish kategoriyasida aniq namoyon bo‘ladi. Matn yoki nutq muallifi konseptual olamiga xos fikrlar ifodasida u yoki bu uslubni tanlab oladi. Tanlangan uslubdan boshqa uslubga o‘tib fikr ifodalash ham kogeziya mohiyatini buzadi,

¹⁹<https://ru.wikipedia.org/wiki/> (murojaat sanasi: 11.03.2025)

²⁰ Bu haqda qarang: Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: КомКнига, 2006. – С.74.

²¹ Лосева Л.М. Кака строится текст. – М.: Просвещение, 1980. – С.93.

bog‘lanish tizimida kogeziya kuchining kamayishiga olib keladi. U hatto muayyan stilga xos bo‘lgan matn elementlarining bog‘lanishi bilan ham o‘zaro farqlanib turadi. Bunday farqlanish konkret uslublarga tegishli matnlarda ko‘zga tashlanadi. Faqat nazarda tutilgan muayyan stil doirasidagi matn elementlarining o‘zaro birikishi va bog‘lanishi ham kogeziyadir. Shuning uchun ham ma’lum tilga oid har qanday matn tahlilida uni muayyan turlarga ajratish stilistik tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Matn turlarini belgilashda, ularni ma’lum guruhlariga ajratishda funksional-stilistik tamoyillar asosiy rol o‘ynaydi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli **“Adgeziya hodisasi: detallashtirilgan verbal tasvir”** deb nomlangan. Badiiy matn uchun badiiylik kategoriyalari muhimdir. Ishning mazkur qismida badiiy matnga xos poetik tafakkurning lisoniy ifodasi, obrazli ifodalarning verbal tasviriga oid tahlillar, badiiy matnga xos bo‘lgan tasvir, muhokama va rivoya nutq tiplari, badiiy matn mazmuniy yaxlitligini ta’minlashga xizmat qiluvchi obrazli nolisoniy vositalar tahlili va tadqiqiga oid muammolar o‘rganiladi. Matnning badiiyligini ta’minlashga xizmat qiluvchi hodisalardan biri adgeziyadir.

“Adgeziya” lotincha so‘z bo‘lib, u “yopishish” ma’nosida qo‘llanadi. Adgeziya termini ifodalagan tushuncha mohiyatida ikki qatorda joylashgan tovush, so‘zlarning o‘zaro birikishi anglanadi. “Adgeziya tushunchasi tovush, so‘z kabi turli sathga oid birliklarning o‘zaro birikishi ma’nosida qo‘llanadi”²². Lingvistikada adgeziya fenomeni masalalari kam o‘rganilgan hodisalardan biri sanaladi. Xususan, “...adgeziya hodisasi matn kategoriyasi sifatida lingvistikada juda ham kam o‘rganilgan fenomenlardan biridir. Lingvistik an’analarga ko‘ra, matnda kogeziya, kogerentlik, informativlik, kontinuum, retrospeksiya, prospeksiya, modallik, integrativlik, yakunlanganlik va butunlik kabi juda ko‘plab kategoriyalar ajratiladi”²³. Lekin bog‘lanish kategoriyasining asosi bo‘lgan kogeziya hodisasining ziddi hisoblangan adgeziya haqida matn lingvistikasiga oid adabiyotlarda fikrlar bildirilmaydi. Hatto I.R.Galperin asarlarida ham adgeziya termini ko‘zga tashlanmaydi. Matn mazmunini shakllantirishga va uning yaxlitligini ta’minlashga xizmat qiluvchi kogeziya hodisasi kategorial struktura sifatida mavjud bo‘lishi uchun adgeziya hodisasi haqida ham to‘la va mukammal fikr bildirish, bu tizimga oid tushuncha va qarashlar mohiyatini ilmiy asoslar bilan dalillash ehtiyoji mavjud. Lisoniy adgeziya mohiyati semantik-sintaktik jihatdan turlicha paradigmadan iborat bo‘lgan birliklarning sintagmatik munosabatga kirishishidir. Adgeziya hodisasi kogeziya termini ifodalagan tushunchalar tizimiga ixtisoslashgan termin sifatida e’tirof etiladi. Adgeziya ham kogeziya singari matn tarkibiy qismlarini bog‘lashga xizmat qiladi. Biroq adgeziya hodisasiga xos eng asosiy xususiyatlardan biri bu mazmun ifodasida tor ma’noda mantiqdan chiqishdir, buni bir sistemaga mansub bo‘lmagan yoki turlicha paradigmatic qatorda mavjud bo‘lgan lisoniy vositalarning o‘zaro bog‘lanishi, deb tushunish mumkin. Ikki lisoniy vositaning semantik jihatdan nomuvofiqligi yoki turlicha sistemaga mansub birliklarning o‘zaro birikishi adgeziyadir. Muallif maqsadi asosida fikrlarning

²²Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. – Назрань: Изд-во Пилигрим, 2010. – С.23.

²³Мурай О.В. Феномен адгезии в лингвистике // Мир науки, культуры, образования. – 2022. – № 2. – С.412.

uyg'unlashuvi, ularning o'zaro bog'lanishi yoki noodatiy birikish hosil qilishi adgeziya hodisasining mohiyati hisoblanadi. Aslida kogeziyaga zid tarzda adgeziya hodisasi mantiqning buzilishiga asoslangan bog'lanishdir. Masalan, *Poyezd nimagadir kech qolayapti. Hali tushlik vaqti bo'lmasa-da, meni nimadir yegim kelayapti. U bugun qandaydir asabiy. Nimagadir o'g'lim ishdan ertaroq qaytdi. Biron narsa ro'y bermadimikin?*²⁴. Misollar mazmunidan shuni anglash mumkinki, borliqda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan real hodisalarning noreal holatga o'tishi va ularning mazmuniy ifodasida mantiqdan chekinish ko'zga tashlanadi. Adgeziya hodisasi lisoniy ifodalarning birikishida noodatiylik xususiyatini ifodalaydi. Demak, adgeziya hodisasi turli lisoniy sistemaga oid vositalarning o'zaro birikishidir. Adgeziya hodisasi badiiy matnda muallifning istagini bajarishga xizmat qiladi. Badiiy matnda lisoniy, nolisoniy va noverbal kabi turli paradigmaga mansub ifoda vositalarining matn umumiy mazmunini shakllantirishga xizmat qiluvchi vazifalari adgeziya hodisasini anglatadi. Mazmuniy ifodadagi har xillik adgeziya bo'lib, u verbal, noverbal hamda nolisoniy ifoda shakllari orqali namoyon bo'ladi. Adgeziya badiiy matnda lisoniy va nolisoniy ifodalarning umumiy mazmun ifodasiga xos hamohangligidir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida **“Detallashtirilgan komponentli matnlarning semantik tavsifi”** bayon etilgan. Bobning **“Detallashtirilgan komponentli matnlar tavsifi”** deb nomlangan birinchi faslida tilshunoslikda badiiy detallar ishtirok etgan matnlar tadqiqi kommunikativ-pragmatik jihatdan muhim va dolzarb masalalardan biri ekanligi ta'kidlanadi. Detal badiiy matnning asosiy komponentlaridan biri bo'lib, muallifning kommunikativ niyati va maqsadini yuzaga chiqaradi. Badiiy matnda ma'lum maqsad ifodasi uchun muallif tomonidan qo'llangan har bir detal mazmuniy strukturaning muhim qismi sanaladi. Badiiy asar muallifi yashirin mazmuniy strukturaga tegishli bo'lgan ayrim xabarlarini detallar orqali kodlaydi. Natijada detal tasviri bilan kodlanayotgan xabar mazmuni implitsitlik xususiyatiga ega bo'ladi. Detal ham xuddi lisoniy vosita singari belgiga aylanishi bilan oq informativlik yukini zimmasiga oladi. Shuning uchun ham axborot ifodalashga xizmat qiluvchi detal kodlanuvchi tizimning maxsus turiga mansub bo'ladi. Detallar orqali ifodalanuvchi xabarlar faqat implitsitlik maqomiga ega bo'ladi. Verbal tasvirda ifodalangan mazmun detalda obrazli ifoda shakliga aylanadi. *“Badiiy detalga peyzaj yoki portret elementi, alohida buyum, psixologik harakat yoki qilmish mansub bo'ladi”*²⁵. Badiiy matnda muallif xohlagan narsa yoki buyumni detalga aylantirishi mumkin. Bu badiiy adabiyot tilida detallashtirish deb nomlanadi. Masalan:

Qumri onasining nega bunaqa bo'layotganini bilib turardi. Boya akasi tong yorishmay hovli etagidagi yong'oq tagida devorga qarab cho'qinayotganini ko'rib hayron-u lol qolgandi. Ayollar umuman titimsaq xalq bo'ladi. Akasi Abdumalik bilan hovlidan chiqib ketgach, ichkari uyda turgan chemodanini titkiladi. Shunda sariq baxmalga o'ralgan bir narsaga ko'zi tushdi. Ushlab ko'rdi.

²⁴ Мурай О.В. Феномен адгезии в лингвистике // Мир науки, культуры, образования. – 2022. – № 2. – С. 412.

²⁵ Трубкина А.И. Художественная деталь: имплицитность и коммуникативно-прагматические функции // Филологические науки. Вопросы теории и практики, 2021. – Т.14, – Вып. 9. – С.2849.

Qutichaga solingan narsa to'pponcha emasmikan, deb baxmal tugunni yechib qaradi. U xristianlarning muqaddas kitobi Injil edi. Uni ushlagan qo'llari kuyayotgandek shoshib yana baxmalga o'rab qo'ydi (Said Ahmad, “Qorako'z Majnun”).

Yuqoridagi detal komponentli matnda quyidagi detallashtirilgan ifodalar mavjud bo'lib, ular: *yong'oq, cho'qinish harakati, sariq baxmal, to'pponcha* va *injildir*. Mazkur matnda birinchi detal **yong'oq** daraxti bo'lib, bu so'z daraxtga xos denotat tasvirini ifodalagan. Ma'lumki, *yong'oq* daraxti o'zidan inson aqliy faoliyatiga salbiy ta'sir qiluvchi kimyoviy modda isini chiqaradi, shuning uchun ham *yong'oqning tagida uxlash mumkin emas*, degan fikr xalq tafakkurida mavjud. Aynan *yong'oq* daraxtining tagida cho'qinish ibodatiga xos Bo'rixon harakatlarining noverbal tasvirida *yong'oq* isining ta'siri aks etgan xabarga ishora qilinadi. Yozuvchi Bo'rixon e'tiqodiga mansub xarakter tavsifini berishda uning harakatini detal tafsilotlari bilan tasvirlaydi. Xususan, matndagi detallar: *yong'oq, sariq baxmal, to'pponcha* va *injil* kabi verbal ifodalar mazmuni Bo'rixonning o'zga e'tiqodga mansub harakati, ya'ni “*cho'qinishi*” kabi noverbal vosita orqali umumlashtirilgan holda ifodalangan. Bu esa detallashtirilgan verbal tasvirga salbiy xabar mazmunini yuklaydi, ya'ni asar qahramonining o'z dinidan chiqqanligi haqidagi xabarni beradi. Verbal vosita mazmunining noverbal vosita orqali umumlashtirilgan holda ifodalanishi matn mazmunini kuchaytirish, estetik-emotsionalligini oshirish uchun xizmat qiladi. Bu esa matn mazmunini anglashda adgeziya hodisasining ahamiyati katta ekanligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi matnda buyum hamda narsaning rangi detalga aylanadi. Bu o'rinda baxmalning sariqligi detallashtirilgan. Baxmal rangining sariqligi ayriliq ramzini ifodalaydi. Badiiy matn muallifi xristianlar uchun muqaddas kitob hisoblangan *Injilni* xohlagan rangdagi baxmalga o'rashi mumkin edi. Biroq baxmalning qizil, ko'k, qora yoki boshqa rangda bo'lishi muallif nazarda tutgan g'oya yoki fikr uchun nomuvofiqdir. Aynan sariq rang o'zbek milliy madaniyatida ayriliq ramzi ma'nosini ifodalaydi. Matnda **to'pponcha** so'zi detallashtiriladi, hammaga ma'lum bo'lganidek, to'pponcha denotati xavfli qurollardan biri sanaladi, uni yonida olib yurish, undan foydalanish ta'qiqlanadi. Muallif to'pponcha so'zini detalga aylantirar ekan, ruhiyatga salbiy ta'sir qiladigan va topponchadan ham xavfliroq bo'lgan o'zga e'tiqod ramzi bo'lgan *Injilni* detallashtiradi. Injilning Bo'rixonga tegishliligi esa uning ota-ona, qarindosh-urug', diniy e'tiqod va Vatandan ayrilish ma'nosini ifodalaydi. Bu esa muallifning kommunikativ niyatini ko'rsatadi.

“Badiiy detal muallif nazarda tutgan g'oya va fikrni aktuallashtiradi. Badiiy matnda detallar qo'llanganda kitobxon mazmunni tez idrok qiladi. Detallar noverballashgan fikrlar”²⁶dir.

Bobning ikkinchi fasli “**Badiiy detal – matnning struktur komponenti sifatida**” deb nomlanadi. Ma'lumki, so'z verbal ifoda shakli sifatida har qanday xabar yoki axborotni muallif istaganidek, to'liq va mukammal ifodalash xususiyatiga ega. Noverbal vositalar esa muloqot jarayonida verbal vositalarga

²⁶ Трубкина А.И. Художественная деталь: имплицитность и коммуникативно-прагматические функции // Филологические науки. Вопросы теории и практики, 2021. – Т.14. – Вып. 9. – С.2849.

hamrohlik qiladi, biroq muallif badiiy tafakkurida shakllangan ayrim g'oya, fikrlar ifodasi uchun ba'zida so'zning ma'no mundariyasi torlik qilishi mumkin.

Badiiy matn muallifi tafakkuriga xos konseptual olamda ro'y berayotgan voqea va hodisalar mazmuni ba'zida verbal tasvirga sig'maydi yoki verbal vositalar muallif aytmoqchi bo'lgan g'oya, fikrlarni ifodalash imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Yana ham aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, voqea va hodisalarning verbal tasviri obrazli ifoda shaklini bermaydi. Badiiy matn muallifi tasvirlamoqchi bo'lgan voqea va hodisalar uchun obrazli ifoda shakliga ehtiyoj yuzaga keladi. "Badiiy obraz o'zining tabiati, xarakteri va xususiyatlariga ko'ra, o'ta murakkab kategoriyadir. ... gul obrazi san'at muxlisi – badiiy adabiyot muxlisi ongida ma'shuqa, ishq-muhabbat timsoli, agar bu obrazga yanada chuqurroq ruhiy holatdan yondashsak, u vafodor yohud bevafo yor timsoli, u bugun barhayot, ammo ertaga muqarrar o'tuvchi umr va hokazo assotsiatsiyalar tug'diradi"²⁷. Muallif aynan shu o'rinlarda personaj va qahramonlar ruhiyati, portreti yoki ularning dunyoqarashi bilan bog'liq mazmun ifodasida har bir g'oya va fikrni detallashtiradi. Ularni mayda-chuyda tafsilotlar bilan ifodalashga harakat qiladi. Masalan, O'.Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" qissasida bosh qahramon Alimardon To'rayev fojiasidan so'ng go'riston shunday tasvirlanadi:

Saxiy ko'klam ko'p qatori Alimardonning qabrini ham chechaklarga burkadi. Maysalar orasida ochilgan bittagina qizg'aldoq tong shudringiga qadah tutdi. Erta-indin to'kilib ketishi, o'zidan na bir muattar bo'y, na meva qolishidan bexabar yal-yal yondi (O'.Hoshimov, "Bahor qaytmaydi").

Misol uchun keltirilgan detal komponentli matnni kognitiv-pragmatik tahlil va tadqiqiga o'tishdan oldin *qizg'aldoq* so'ziga xos biologik lisoniy tavsifiga to'xtalish zarur. Odatda, u ilmiy jihatdan shunday tavsiflanadi: "Lolaqizg'aldoq – ko'knordoshlar oilasiga mansub bir yillik o't. Bo'yi 10-40 sm. Poyasi dag'al tuklar bilan qoplangan, tub barglari uzun bandli, poyadagilari bandsiz. Barg plastinkasi ikki karra patsimon qirqilgan. Gullari yirik, gultojbarglari qizil, tubida yoysimon qora dog'i bor. Mevasi dag'al tuklar bilan qoplangan, dumaloq ko'sak. Aprelda gullaydi, mayning oxirida mevalaydi, iyunda quriydi. Lolaqizg'aldoq cho'llar, adirlar, bog'lar, bahorgi ekinlar orasida ko'p uchraydi. Poyasi, bargi va gullarida 0,1% alkaloid bor. Gultojbarglarining suvi xalq tabobatida oftob urgan bolalarga ichiriladi"²⁸.

Ma'lumki, badiiy matn uchun detal sifatida tanlangan predmet, narsa-buyum kabilar aslida insonga badiiy kontekstda qo'llanganchalik ta'sir qilmaydi, u ijodkorning badiiy tafakkuri tufayli obrazli ifodaga aylanadi, badiiy matnda obraz yaratuvchi asosiy vosita so'zdir, lekin u oddiy so'z emas, borliqdagi oddiy denotatni nomlovchi so'z badiiy matnda ijodkor tafakkuri orqali detallashtirilgan obrazli ifodaning verbal tasviridir. Mazkur verbal tasvir "...insondagi muayyan his-tuyg'uni, holat va harakatni, o'y va kechinmani o'zgaralar qalbiga, shuuriga ta'sir etadigan darajada ifodalaydigan so'zdir"²⁹.

²⁷ Саримсоқов Б. Бадийлик ассослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004. – Б.12.

²⁸ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Lolaqizg%CA%BBaldoq> (murojaat sanasi: 15.03.2025).

²⁹ Саримсоқов Б. Бадийлик ассослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004. – Б.5.

Yuqorida keltirilgan qizg'aldoq detali katta mazmun sig'imiga ega bo'lgan ifoda shaklidir. Undan foydalanish badiiy umumlashtirishga olib keladi, bu psixologik matnlarda nafaqat kitobxonning tasavvurini boyitishga, balki voqealarning obrazli tasvirini idrok qilishga yordam beradi. Mazkur kontekstdagi obraz va obrazlilikning asosini ijodkorning voqelikni hissiy-aqliy idrok etishi, qayta ijodiy gavdalantirishi tashkil etadi. Detallashtirilgan subtekstni tashkil etuvchi detal ma'lum bir hissiy holatni yaratib, matn mazmunini psixologik jihatdan kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Qizg'aldoq detali obrazli ifodaning tarkibiy elementiga aylanib, Alimardonning hayotini gavdalantirib beradi. Qizg'aldoq detali majoziy-semantik kengayish bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham u ma'lum bir estetik ahamiyatga ega bo'ladi. Obraz xususiyatlarini o'zida aks ettirib, estetik ta'sirni oshiradi. Mazkur detalning kontekst tarkibiga kiritilishi o'quvchi kognitiv idrokining faollashishiga yordam beradi.

Uchinchi bobning **“Detal komponentli matn turlarining kognitiv-pragmatik tavsifi”** deb nomlangan uchinchi faslida peyzaj, harakat-holat, narsa-buyum, qahramon nutqi tasviri aks etgan detal komponentli matn turlari tahlilga tortiladi.

Ma'lumki, detal obrazli ifoda turidir. Bunday tipdagi matnlar ijodkor badiiy tafakkurining mahsulidir. U asarning muhim mazmuniy qismlaridan biri bo'lib, verbal tasvir asosida yuzaga chiqadi. Verbal tasvirga asoslangan har qanday ifoda ham badiiylik mezonlariga ega bo'lavermaydi. Badiiylik tushunchasi oddiy so'zning obrazli ifoda shakliga aylanishidir. Inson sezgi a'zolari orqali qabul qilingan oddiy xabarlar ijodkor badiiy tafakkurining nozik nuqtalarida qayta ishlanadi, sintezlanadi. Natijada borliqda ro'y berayotgan har bir voqea-hodisa olamning badiiy-konseptual manzarasi sifatida ijodkor tafakkurida namoyon bo'ladi. Bunday kuchli konseptual-badiiy manzaradan adib istaganicha foydalana oladi. Har bir narsani yoki voqelikni, ayni vaqtda, peyzaj, portret yoki oddiy nutqni detallashtira oladi. Xususan,

“Sochlari taqimini o'pard. Taraganda shamshod taroq ushlagan qo'llari sochining uchigacha yetmasdi. Yarmini qismlab turib, buyog'ini tarardi. Opasi bu sochlarni qirqta qilib o'rganda, yana shunchasi ortib qolardi...”

Ertalab kampir hech narsa bo'lmagandek o'rnidan turdi. Qumri qarasa, onasining qolgan qora sochlari ham bir kechada oqarib, ajinlari ko'payib ketibdi” (S.Ahmad, “Qorako'z Majnun”).

Yuqoridagi parchada Allohga va farzandlariga muhabbati kuchli bo'lgan Saodat ayaning portret tasvirida o'zbek ayolining jisman go'zalligi mohir rassomlar singari o'ziga xos bo'yoqlar chizgisi bilan berilgan. Vizual sezgi a'zosi orqali qabul qilingan verbal tasvirga na buyuk ijodkor, na kitobxonlar shubha qila oladi. Biroq Saodat ayaning Allohga bo'lgan muhabbati va unga qat'iy amal qiluvchi e'tiqodlar ramzi bo'lgan ibodati oldida o'g'li Bo'rixonning g'ayridiniy harakatlari fojia sifatida qabul qilinadi. Buni yozuvchi oddiygina verbal tasvir bilan ifodalashi mumkin bo'lgani holda, ularni oddiygina so'zlar bilan bayon qilishdan qochadi. Go'yoki muallif bayonning bunday usulidan foydalansa, o'zi tugul, kitobxon ham bu tasvirdan qoniqmaydi. So'zning ma'no qudrati bunday

obrazli ifodalarni aks ettirishga o'zgaruvchanlik qiladi. Endi muallif obrazli ifoda uchun mayda-chuyda tafsilotni ifodalash qudratiga ega bo'lgan badiiy detalga ehtiyoj sezadi. Badiiy matn implitsit mazmuniga singdirilgan arzimagan kichik buyum yoki narsalar, kishi a'zolaridan biri yoki jarayon detallashtiriladi. Adibning tasavvurida bir kechada sochlari oqarib ketgan onaning ruhiy holati so'z tasvirida to'liq aks etmay qoladi. Muallif endi obrazli ifoda usulini tanlashi kerak. Bir kechada sochning oqarishi vizual ifoda shakliga aylangan obrazli vositadir.

Bunday uslub boshqa ijodkorlar asarlarida ham ko'zga tashlanadi. Portret chizgilari tasvir nutq tipi orqali bayon qilinadi. Unda muallif inson jismida ko'rinib turuvchi birorta ijobiy yoki salbiy vizual tasvirni e'tibordan chetda qoldirmaydi. Hatto kitobxon assotsiatsiyasida salbiy tasavvurni shakllantirishga xizmat qiladigan vizual obrazli ifoda ba'zida audial obrazli ifoda shakli bilan ham tasvirlanadi. Masalan:

*Oilamizdami, boshqa yerdami baharhol xotiramda yaxshi qolmag'an, Lola otlig' bir qizning chevarligi to'g'risida so'z bo'ldi. Majlis ahli menga yaqin, ya'ni ular oldida husndan bahs ochish uyat bo'ladirg'an kishilar edilar. Shuning uchun menga Lolaning chevarligidan ko'ra muhimroq bo'lg'an "**husn**"i masalasida izohot so'rashning imkoni bo'lmadi. Lekin Lola ismining ostida bir malakni **ko'rgan**: "Lolaning ismiga o'xshash husni ham bor", – deb o'ylag'an edim. Shu kundan boshlab Lolani ko'rish hajriga tushdim.*

*Bo'yi yetgan qizlarni ko'ra olish bu kunlarda ham amri mahol bo'lg'anidek, mundan o'n yillar ilgarida yana mushkilroq edi. Necha vaqt "hijron o'tida yonib" ko'cha poylab, nihoyat, Lolani suv olish uchun ko'za ushlab ko'chaga chiqqan holatda uchratdim. **Burnidagi buloqisidan boshqa (agar buloqi husnga qo'shilsa)** "Lola" likka arziydigan hech gap yo'q edi.*

*Yaqindag'i bir boladan suv olg'uvchining kim ekanini so'rag'an edim:
– Lola opam, – dedi.*

***Bolaning talaffuzi menga "Mola opam" bo'lib eshitildi.** Bir necha kunlar bu qizning otini "Lola" deb qo'yg'anlari uchun achchig'lanib yurdim.*

Ammo Ra'noning ismi – jismiga yoxud husniga juda muvofiq tushgan edi. Men rassom emasman. Agar menda shu san'at bo'lg'anda edi, so'z bilan biljirab o'turmas, shu o'rinda sizga Ra'noning rasmini tortib ko'rsatar, qo'yar, faqat menga Ra'no gulining suvi ko'proq kerak bo'lar edi.

*Solih maxdum xasis, ta'magir, har holda sajiyasi e'tibori bilan uni yaxshilar qatorig'a qo'yib bo'lmaydir. Va lekin tabiat xasis emas, **tikandan gul aridan bol** yarata beradir. Shunga o'xshash tikanlik yog'ochdan xush **islik**, latif ko'rinishlik Ra'no yaratilg'an edi (A.Qodiriy, "Mehrobdan chayon").*

Yillar davomida shakllangan o'zbek madaniyatiga xos tushuncha va urf-odatlar va har bir o'zbek til tashuvchisining tafakkurida mavjud bo'lgan oddiygina xabarlar adib mahorati tufayli badiiy detal sifatida obrazli ifodaga aylanadi. Ular ijodkorga xalq o'zaki ijodi an'alaridan qolgan badiiy meros bo'lib, adib portret tasviri uchun ulardan ustalik bilan foydalanadi. Kichik epizodlarda mayda-chuyda detallardan katta g'oyaviy yukni ifodalash qudratiga ega bo'lgan implitsit mazmuni bera oladi. Detallar badiiy matn implitsit mazmunini aktuallashtiradi, kitobxon diqqat-e'tibori muallif tomonidan detallashtirilgan mazmunga

yo'naltiriladi. Kitobxon tafakkurida ham badiiylik mezonlari bilan mukammalashgan obrazli ifodalar mazmuniga xos an'anaviy va o'xshash assotsiatsiyalar paydo bo'ladi. Detallashtirilgan fikrlarda muallifning o'tkir nigohi implitsit mazmun tarkibiga ustalik bilan yashiriladi, u asarda tasvirlangan voqealar mazmunida ishtirok etmagan holda kitobxonning aqliga, his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi. O'zi detallashtirgan obrazli ifoda mazmunini vizual sezgi a'zosi orqali qabul qilingan xabarlar mazmuni bilan boyitadi. Bu esa kitobxon tafakkurida adabiy-badiiy epizodlarni interpretatsiya qilish, implitsit mazmundagi boshqa voqealar mazmuni bilan bog'lash, assotsiatsiya qilish kabi kognitiv jarayonlarning yuzaga kelishiga imkoniyat yaratadi.

XULOSA

1. Badiiy matn lingvistik tadqiqot obyekti sifatida e'tirof etilganiga ancha vaqt bo'lganiga qaramasdan, detal va detallashtirilgan komponentli matnlarni o'rganish masalasi hamon ochiq qolmoqda. Detal komponentli matnlarni o'rganish lingvistikaning yangi yo'nalishlaridan biri bo'lgan matn tilshunosligi muammolari qatoridan o'rin oldi. Faqat mazkur muammoni matn lingvistikasi mundarijasi sathidagi o'rnini belgilab olish bugungi tilshunoslikning dolzarb masalasidir.

2. Tilshunoslikda ilmiy paradigmalar tanlangan yo'nalishlarning predmeti va tadqiqot obyektiga nisbatan belgilanadi. Ilmiy paradigmalar transformatsiyasi lisoniy tahlil va tamoyillar asosida yuz beradi. Tamoyil va tahlilning o'zgarishi tadqiqot fokusiga bog'liq bo'ladi. Tadqiqot fokusi esa ilmiy paradigma bilan belgilanadi. Ilmiy paradigma mohiyati tadqiqot predmeti va obyektiga nisbatan transformatsiyalanadi. Har qanday tadqiqot predmeti va obyekti yaxlit strukturadan iborat bo'lsa ham, u yagona ilmiy paradigma tarkibida yangi elementlar bilan to'ldirilib, mukammallashib boradi.

3. Detal komponentli matnlar yoki detallashtirilgan tarkibli matnlar ham badiiy matnda verbal tasvir usuli orqali bayon qilinadi, shuning uchun ham ular semiologik tamoyillar asosida tahlil qilinadi. Bunday tipdagi matnlar insonning vizual va audial sezgi a'zolari orqali assotsiatsiya qilingani uchun ham to'liq ma'noda belgi qiymatiga ega bo'ladi. Belgida ma'lum bir voqea-hodisalar mazmuniga asoslangan xabarlar ifodalanib, ular badiiy matnda verballashadi.

4. Matn lingvistikasining asosiy birligi sanalgan matnga nisbatan semiotik tushuncha sifatidagi qarash va yondashuvlardan so'ng tahlil tamoyillari maydoni kengaya boshladi. Bu esa matn tilshunosligi nazariyalariga oid kategorial tushunchalarni aniqlashga yo'l ochdi. Matnga semiologik nuqtayi nazardan qarash uning kognitiv asosini to'g'ri belgilashga xizmat qildi. Natijada matnni o'rganish bilan bog'liq kategorial paradigmalar o'zaro differentsiatsiyalana boshladi. Matnning shakliy va mazmuniy strukturasi o'zaro bog'lanuvchi ham ichki, ham tashqi paradigmatic-sintagmatik munosabatlar sohaning nazariy asosini tashkil qilishi e'tirof etildi.

5. Olam manzarasi inson tajribasi bilan umumlashtirilib, amaliy o'rganish va kuzatish jarayonida egallangan bilimlar bilan to'yintiriladi, shu asosda u sohaning maxsus terminologik apparati maqomiga ega bo'ladi, u inson tafakkurida umumiy belgilari bilan ma'lum bir guruhlariga ajratiladi. O'ziga xos xususiy belgilari bilan esa guruhga mansub tizimda biri ikkinchisi bilan o'zaro farqlanuvchi umumiy paradigmaning tarkibiy elementlariga aylanadi.

6. Matnga xos bo'lgan kogeziya hodisasi va u ifodalagan tushunchalar matn tarkibidagi elementlarning o'zaro bog'lanishidir. Matn tarkibiy qismlarining o'zaro bog'lanishini tashkil qiluvchi kogeziya hodisasi matn tilshunosligi tizimidagi o'ziga xos ilmiy paradigmadir. Shuning uchun ham kogeziyani yetakchi kategorial tushunchalardan biri sifatida e'tirof etish mumkin. Ayni mana shu xususiyat matn elementlari o'rtasidagi tizimli bog'lanishdir. Kogeziya matn tarkibidagi elementlarning o'zaro ta'sirlashuvi natijasida yaxlit mazmuniy butunlikning hosil qilinishidir. Yaxlit mazmuniy strukturani hosil qiluvchi matn tarkibidagi elementlarning o'zaro bir-biri bilan semantik, sintaktik va pragmatik jihatdan birikishini muallif tomonidan borliqning tafakkurda idrok qilinishi va uning lisoniy voqelanishi bilan ilmiy asoslash mumkin.

7. Tilda o'zaro qarama-qarshi bo'lgan ikki tushunchalarni ifodalovchi so'zlarning mantiqqa zid ravishda o'zaro bog'lanishi matn lingvistikasiga oid adabiyotlarda adgeziya nomi bilan yuritiladi. Demak, adgeziya hodisasi turli lisoniy sistemaga oid vositalarning o'zaro birikishidir. Adgeziya hodisasi badiiy matnda muallifning badiiy istagini bajarishga xizmat qiladi.

8. Matn murakkab va ko'p tarkibli tuzilishga ega bo'lgan birlik bo'lib, u verbal, noverbal va nolisoniy vositalardan tashkil topadi. Matn mazmunini ifodalashda ishtirok etuvchi bu vositalar inson tafakkurida idrok qilinadi hamda matn mazmuni anglanadi. Matn tarkibiy qismlari yaxlit mazmuniy strukturani hosil qilar ekan, ana shu mazmuniy strukturani ifodalashga xizmat qiluvchi har bir element yoki har bir ifoda shakli belgi sifatida inson tafakkurida namoyon bo'ladi. Lisoniy vositalar inson tafakkurida shakllangan olamning konseptual manzarasini ifodalovchi asosiy vositalar hisoblangani holda ular matnda boshqa ifoda vositalarini ham verballashtirish funksiyasini bajaradi. Olamning konseptual manzarasini ifodalashda verbal vositalardan tashqari noverbal vositalar ham ishtirok etadi. Ular ham inson ongida shakllangan g'oya va fikrlarni u yoki bu tarzda ifodalashga xizmat qiladi.

9. Nolisoniy vositalar yordamida ifodalangan g'oya va fikrlar badiiy matn muallifining verbal tasvirga sig'dira olmagan xabarlar bo'lib, ular matnda muallifning kommunikativ niyatini namoyon etish uchun verballashtiriladi, lisoniy vositalar orqali ifodalangan fikrlarga uyg'un va hamohang mazmuniy struktura sifatida asar syujetini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday vositalar sirasiga detallar mansub bo'lib, ular muallif nazarda tutgan g'oya va axborotlarni ifodalaydi. U mayda-chuyda tafsilotlar bilan bog'liq mazmun ifodalashni o'z zimmasiga oladi. Detal badiiy matnda ma'lum bir xabarni ifodalaydi. U qahramonlar ruhiyatini ko'rsatishga xizmat qiladi.

10. Badiiy matnda qo'llanadigan detallar muallifning kommunikativ maqsadini ifodalashga xizmat qiladi. Badiiy detal ham badiiy matnning asosiy komponentlaridan biri bo'lib, muallifning kommunikativ niyati va maqsadini yuzaga chiqaradi. Badiiy matnda ma'lum maqsad ifodasi uchun muallif tomonidan qo'llangan har bir detal mazmuniy strukturaning muhim qismi sanaladi. Badiiy asar muallifi yashirin mazmuniy strukturaga tegishli bo'lgan ayrim xabarlarini detallar orqali kodlaydi. Natijada detal tasviri bilan kodlanayotgan xabar mazmuni implitsitlik xususiyatiga ega bo'ladi. Detal ham xuddi lisoniy vosita singari belgiga aylanishi bilanoq informativlik yukini zimmasiga oladi. Shuning uchun ham axborot ifodalashga xizmat qiluvchi detal kodlanuvchi tizimning maxsus turiga mansub bo'ladi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC
DEGREE DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 AT
FERGANA STATE UNIVERSITY**

FERGANA STATE UNIVERSITY

KOMILOVA DILNOZAXON MUKHAMMAD KIZI

**RESEARCH ON EXPRESSIONS THAT ACTUALIZE THE IMPLICIT
CONTENT OF LITERARY TEXTS**
(using texts with detail components as examples)

10.00.01 – Uzbek language

DISSERTATION
abstract for doctor of philosophy in PHILOLOGICAL sciences (PhD)

Fergana – 2025

The theme of doctor of philosophy (PhD) dissertation is registered by Supreme Attestation Commission at the Cabinet of Ministry of the Republic of Uzbekistan under the number № B2024.2. PhD/Fil4776

The dissertation has been prepared at the chair of Uzbek linguistics of Ferghana State University.
The abstract of the PhD dissertation is posted in three (Uzbek, English and Russian (Resume)) languages on the website of the Scientific Council (www.fdu.uz) and on the website «Ziyonet» Information-educational portal (www.ziyonet.uz)

Scientific consultant:	Mamajonov Mukhammad Yusubjonovich Doctor of Philological sciences, Professor
Official opponents:	Yuldashev Marufjan Muxammadjanovich Doctor of Philological sciences, Professor Karimov Suyun Amirovich Doctor of Philological sciences, Professor
Leading organization:	Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore

Defense of the Dissertation will take place on «29» november 2025, at 8:00 p.m. at a meeting of Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 under Ferghana State University (Address: 105, B.Marginoniy Street, Ferghana, 100151. Tel: (99873) 244-66-02; fax: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz.

Dissertation could be reviewed information-resource center of Ferghana State University (registration number 615). Address: 19. Murabbiylar Street, Ferghana, 100151, Tel.: (99873) 244-71-28.

Dissertation abstract sent out on «10» november 2025.

(Mailing report number 56 on «10» november 2025).




G.Z. Rozikova
Chairman of Scientific Council Awarding scientific degree, Doctor of Philological sciences, Professor


M.T. Abdupattayev
Secretary of Scientific Council Awarding scientific degree, Candidate of sciences, docent


D.R. Teshaboyev
Chairman of Scientific Seminar at the Scientific Council awarding scientific degree, Doctor of Philological sciences, Professor

INTRODUCTION

(annotation of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD))

Relevance and necessity of the dissertation topic. In the world linguistics, the perception of any event occurring in reality through human senses, its logical arrangement, its representation by linguistic and non-linguistic means recognized as problems of text linguistics. One of the important tasks facing modern linguistics is the cognitive-pragmatic analysis of various means of expression that form the semantic structure of a literary text, their grouping based on contextual functions, the study of texts with detailed components that actualize implicit content.

In the world linguistics, there has been increased attention to the issues of texts with detailed components in the field of text linguistics, particularly its integral part, literary text analysis. The study of literary text in the aspect of anthropocentric linguistics is connected with the study of detailed text elements. The expression of events occurring in reality in the literary text by various means and the figurative depiction of linguistic and non-linguistic units that create it serve to ensure the semantic integrity of the text, to activate the implicit content in the text. This illustrates the need for cognitive-pragmatic and linguistic-aesthetic research of artistic detail and detailed texts, which are totally different from other texts. Therefore, the most correct way is to scientifically substantiate the implicative features of texts with a detail component in the aspect of text linguistics.

It is also observed that the approach to the study of language based on anthropocentric principles prevails in the works carried out in Uzbek linguistics. It is important to consider the human factor in the study of text, therefore an interest to the issues of expressions that actualize the implicit content of the text is growing day by day. The diversity of forms of expression related to the field of text linguistics, their association based on visual perception determines the logicity of ideas and thoughts expressed in the literary text. In recent years, the features of coherence of linguistic means that create a literary text have been widely studied in the linguistic aspect. However, despite this, in the field of text linguistics, the issues of the adhesive functions of linguistic and non-linguistic means, the verbal description of the artistic detail, have not been studied in a monographic plan. Therefore according to the task in the Decree “Increasing the role and prestige of our native language in society, based on the requirements of today's new stage of Uzbekistan's development - the era of national progress”¹ there is a need to theoretically study the texts with detailed components in order to comprehensively develop the Uzbek language.

The given dissertation has been fulfilled in certain extent according to the requirements of the following laws and regularities as PD-4794 “On the establishment of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги “Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида”ги Қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги ПҚ-4479-сон қарори. <https://lex.uz/docs/4664611?type=doc>.

named after Alisher Navoi” dated May 13, 2016; PD-4947 “On the strategy of actions for the further development of the Republic of Uzbekistan” dated February 7, 2017; PD-4958 “On further improvement of post-secondary education” of February 16, 2017; PR-5850 “On measures to fundamentally increase the prestige and status of the Uzbek language as a state language” of October 21, 2019; PR-6084 “On further promotion of the Uzbek language in our country and Measures for Development and Improvement of Language Policy” of October 20, 2020; “Concept of Development of the Uzbek Language and Improvement of Language Policy in 2020-2030” and other regulatory legal documents related to this activity.

The appropriateness of the research to the prior directions of the development of science and technologies. The dissertation was completed in accordance with the priority direction of the I. “Formation of the system of innovative ideas in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and the democratic state and the ways of their implementation”.

The scope of study of the problem. In the world linguistics, general issues of text linguistics are highlighted in the works of such scholars as H.Izenberg, K.Hausenblaz, P.Sgall, Z.Y.Schmidt². Problems related to the structural analysis of the text are reflected in the research of such linguists as V.Dressler, M.A.K.Hellidey, V.Koch, M.Bellert, K.E.Hydolph, M.Pfütze, B.Palek, T.van Dijk, F.Kifer, H.Weinrich, R.Harweg, A.Wejbiska³. Issues of text linguistics and poetics were studied in detail in the works of M.R.Mayenova, R.Bart, S.Todorov⁴.

Expressions that actualize the implicit content of a literary text have been widely analyzed in the world linguistics. In the first studies devoted to the study of artistic details, the concepts of detail, their differential and integral properties, their relationship with the text were studied.

The research of Z.P.Guzar, A.A.Chernyakov, M.A.Bereznyak, V.A.Kukharenko, N.I.Kolodina, Y.A.Mukarzhovsky, I.A.Shirova, A.B.Yesin,

² Изенберг Х. О предмете лингвистической теории текста // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.43-57; Гаузенблаз К. О Характеристике и классификация речевых произведений // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.57-79; Сгалл П. К программе лингвистики текста // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С. 79-89; Шмидт З.И. “Текст” и “история” как базовые категории // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.89-111.

³ Дресслер В. Синтаксис текста // Новое зарубежной лингвистике. Выпуск 8. – М.: Прогресс, 1978. – С.111-138; Хэллiday М.А.К. Место “функциональной перспективы предложения” в системе лингвистического описания // Новое зарубежной лингвистике. Выпуск 8. – М.: Прогресс, 1978. – С.138-148; Кох В. Предварительный набросок дискурсивного анализа семантического типа // Новое зарубежной лингвистике. Выпуск 8. – М.: Прогресс, 1978. – С.149-171; Беллерт М. Об одном условии связности текста // Новое зарубежной лингвистике. Выпуск 8. – М.: Прогресс, 1978. – С.172-1207; Хайдольф К.Э. Контекстные отношения между предложениями в генеративной грамматике // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.208-218; Пфютце М. Грамматика и лингвистика текста // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С. 218-242; Палек Б. Кросс-референция; к вопросу о гиперсинтаксис // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.243-258; Дейк ван Т. Вопросы прагматики текста // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.259-337; Кифер Ф. О пресуппозициях // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.337-370; Вайнрих Х. Текстовая функция французского артикля // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.370-387; Харвег Р. Редуцированная речь // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.388-401; Вежбицка А. Метатекст в тексте // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.402-424.

⁴ Майенова М.Р. Теория текста и традиционные проблемы поэтики // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.425-441; Барт Р. Лингвистика текста // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.442-449; Тодоров Ц. Грамматика повествовательного текста // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.450-463.

A.I.Trubkina, M.Khakimov⁵, known for their research on texts with a detailed component, served as a conceptual basis for this dissertation.

The connection of the dissertation topic with the research plans of the higher educational institution where the dissertation was completed. The research was carried out within the “Problems of Modern Linguistics” direction of the research plan of Fergana State University.

The aim of the research consists in revealing the cognitive-pragmatic and associative features of texts with a detail components which actualize the implicit content of a literary text.

Tasks of the research:

to define the paradigms of cohesion and adhesion phenomena, which constitute the logic of the implicit semantic layer by synthesizing works on the categorical features of literary texts;

to identify the associative characteristics of artistic details that actualize the implicit content of the text through verbal imagery;

to clarify the issues of verbalization of detailed components and elements involved in the semantic structure of literary texts;

to form scientific paradigms for the linguopoetic description and analysis of texts with detailed components;

to identify the cognitive-pragmatic mechanisms of non-linguistic expressions in the conceptual and artistic-linguistic world picture, to demonstrate their linguo-aesthetic functions.

As **the object of the research** detailed component texts are selected.

The subject of the research is the verbalization and implicit features of detailed forms of expression used in literary texts.

Research methods. The methods of description, classification, componential analysis, comparative and semiological analysis have been used in the dissertation.

The scientific novelty of the study:

by generalizing the work on the categorical properties of the literary text, the scientific essence of the phenomena of cohesion and adhesion, which are considered the logic of the implicit content level, has been established;

the semiological-associative properties of the details that are actualized at the content level of the literary text and their verbal depiction have been proven by the analysis of linguistic evidence;

